

METHODS OF TEACHING ENGLISH THROUGH GAMES IN PRIMARY SCHOOLS IN UZBEKISTAN

DilafruzVahapjanovna SUBANOVA¹
Tashkent State Pedagogical University
Lecturer of the Department of
English Theory and Teaching Methods
Ug'loy Nurkhon kizi NURMURADOVA²
student of the III stage of the
Faculty of Foreign Languages of the
Tashkent State Pedagogical University
subanovadilafruz88@gmail.com

Abstract

This article discusses the effective methods used to teach English to primary school students. The article describes game technologies that can be used in a variety of topics.

Key words: Game technologies, pedagogical approach, personal development.

O'ZBEKISTONDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'YIN ORQALI INGLIZ TILINI O'QITISH USULLARI

Dilafroz Vahapjanovna SUBANOVA¹
Toshkent davlat pedagogika universiteti
Ingliz tili nazariyasi va o'qitish
metodikasi kafedrasida o'qituvchisi
O'g'iloy Nurxon qizi NURMURADOVA²
Toshkent davlat pedagogika universiteti
Chet tillar fakulteti III bosqich talabasi
subanovadilafroz88@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishda foydalaniladigan samarali usullar haqida bahs yuritiladi. Maqolada turli mavzular doirasida foydalanish mumkin bo'lgan o'yinli texnologiyalar tasvirlangan.

Kalit so'zlar: o'yinli texnologiyalar, pedagogik yondashuv, shaxs kamoloti

O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarni o’qitishning kompleks tizimi¹, ya’ni har tomonlama kamol topgan, o’qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirish, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo’naltirish borasida ko’plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, chet tillarni o’rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko’rsatmoqdaki, ta’lim standartlari, o’quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg’or axborot va media-texnologiyalardan foydalanish borasida turli ishlar olib borilmoqda. Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o’rganishni tashkil qilish, shuningdek, o’qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o’quv-uslubiy materiallar va turli xil o’quvchilarni o’ziga jalb qila oladigan o’quv metodlaridan foydalanishni yanada takomillashtirilishini taqozo etmoqda.

Bugungi kunda yosh avlodga jumladan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun xorijiy tillarni, asosan ingliz tilini o'rgatishga chuqur yondashish muhim ahamiyatga egadir. O'quvchilarga mazmunli va qiziqarli dars o'tish o'qituvchi-pedagoglarning burchi hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning yoshi, jismoniy va aqliy salohiyatidan kelib chiqqan holda,

¹https://www.norma.uz/raznoe/ozbekiston_respublikasi_prezidentining_farmoni

ularga ingliz tilini o'rgatishda albida pedagogik-psixologik yondashuv talab etiladi.

Bilamizki, 7-9 yoshdagi bolalar diqqati uzoq muddatga bora olmaydi. Bu yoshdagi o'quvchilar odatiy darslardan tezda zerikadilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik holatidan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, ular faqatgina 20-25 daqiqa davomida darsga o'z diqqatlarini qarata olishlari mumkin.²Shu sababli ham bunday yoshdagi o'quvchilar uchun noodatiy dars metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi va ularning fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Bugungi kunda chet til o'qitishda turli o'yinlardan foydalanish mumkin.

Jumladan, "Fruits and vegetables" mavzusi doirasida o'quvchilar intellectual qobiliyatini oshirishga yordam beruvchi bir qancha qiziqarli o'yinlar mavjud. Shulardan biri "A sweet tree" o'yini bo'lib, bunda dastlab o'quvchilarga ingliz tilida mevalar yoki sabzavotlarni o'z ichiga olgan yangi so'zlar taqdim etiladi va ularning to'g'ri talaffuz qilinishi o'rgatiladi. Yangi so'zni taqdim etish jarayonida tayyor tarjimalardan foydalanilmaydi, balki turli rasmlar, predmetlar, harakatli o'yinlar va lug'atdan foydalanish samarali natija beradi.³Mavzuni mustahkamlash uchun o'quvchilar dastlab 3 yoki 2 guruhga bo'linadilar. Sinf doskasiga daraxt rasmi chiziladi. O'quvchilarga meva shaklidagi maxsus stikerlar tarqatiladi va o'yin boshlanadi. Har bir o'quvchi o'zi bilgan meva yoki sabzavotlarning ingliz tilidagi tarjimalarini yozadilar va doskadagi daraxtlarga ilishadi. O'yin yakunida har bir daraxtdagi yangi so'zlar sanaladi. Qaysi daraxtda yangi so'zlar soni ko'p bo'lsa, o'sha jamoa g'alaba qozonadi. Bu o'yin o'quvchilar lug'at boyligini oshirishga va ularning imlo xatolarini tekshirishga yordam beradi.



Keyingi o'yinimizning nomi "Magic box" bo'lib, bunda o'qituvchilar oddiy yoki bejirim qutichadan foydalanishi mumkin. Quticha esa mavzuga doir yangi so'zlar va ularning rasmi

²Джалолов Д.Д. и другие. Концепция непрерывного обучения по иностранному языку. Газета "Учитель Узбекистана". 28.07-03.08.1993 г. С-4.

³JalolovJ.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012 –b. 25.

tasviri tushurilgan qog'oz parchalari bilan to'ldiriladi. Qutidagi qog'oz parchalarini o'quvchilar navbat bilan olishadi va rasmdagi so'zni ingliz tilida aytishadi. Bu metod o'rganishning "Visual learning style" turiga kiradi va bunda o'quvchilar so'zlarni rasmini ko'rish orqali eslab qolishadi. Ushbu metoddan yangi so'zni taqdim etishda foydalanish maqsadga muvofiq.

"The Colours" mavzusi uchun quyidagi usuldan foydalanish mumkin. Bunda o'qituvchi ranglarning ingliz tilidagi tarjimasini aytadi va o'quvchilar tezlik bilan ranglarning nomini topib bo'yaydilar. Ushbu usul orqali o'quvchilarning tinglab tushunish qobiliyatlarini rivojlantirib boorish mumkin.

"Domestic or wild animals" mavzusida oddiy koptok darsimizni yanada qiziqarli qilishga yordam beradi, bu metod o'quvchilardan so'zlarni tez yodga olishlarini talab qiladi. Bunda o'qituvchi mavzuga doir bir so'zni, ya'ni hayvon nomini o'zbek tilida aytadi va koptokni uzatadi. O'quvchi koptokni ilib olishi va so'zning tarjimasini aytgan holda to'pni o'qituvchiga qaytarishi lozim.

Sinfda barcha o'quvchilarning bilim darajasi va qobiliyatlari turli xil bo'ladi. Uyalchang va tortinchoq yoki darslarni o'zlashtirishda qiynaladigan o'quvchilar uchun ushbu metoddan foydalanish ancha yaxshi natijalarga olib keladi. Navbatdagi metodning nomi "On the Throne" bo'lib, bunda doskaga bitta stul chiqariladi va o'zlashtirishi past bo'lgan bir o'quvchi ushbu stul ustiga chiqadi. O'qituvchi o'tilgan mavzu yuzasidan yangi so'zlarni ingliz va o'zbek tillarida aytadi, o'quvchi esa navbat bilan ushbu so'zlarni takrorlaydi. Bu metoddan ko'zlangan maqsad shuki, agar orqada qolayotgan o'quvchi boshqalardan balandroqqa chiqarilsa, u o'zini boshqacha tasavvur qila boshlaydi. Unda qandaydir motivatsiya paydo bo'ladi, o'zini boshqalardan oldinda ketyotganday his qiladi va ijobiy tarafga o'zgara boshlaydi.

Keyingi o'yin "What is?" deb nomlanib, bu o'yindan o'qituvchilar qachonki "Professions" mavzusini o'tganida foydalanishlari mumkin. Bunda dastlab o'quvchilarga kasblar bo'yicha yangi so'zlar tanishtirilib chiqiladi. Bir o'quvchi xohishga binoan tanlanadi va eshik ortiga sinfdan chiqib turadi. Qolgan o'quvchilar tashqaridagi o'quvchini kim bo'lishini kelishadilar, masalan shifokor. O'quvchi ichkariga kimgach so'rashni boshlaydi: - Am I teacher? O'quvchilar javob beradi: - No, no. - Am I doctor? Javob berishadi: - Yes, yes. Shu tariqa o'yin davom etadi. Bu o'yin mavzuni mustahkamlash bilan birgalikda, o'quvchida chet tilda kommunikatsiya hosil qilishga yordam beradi.

Shuningdek, darsdagi mavzularni ertaklar bilan ham uyg'unlashtirib o'quvchilarga tushuntirish mumkin. Bu esa bolalarning tasavvur qilish orqali eslab qolish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, "Wild Animals" mavzusini "The Bun – Bo'g'irsoq" ertagiga bog'lash orqali yanada mustahkamlash mumkin. Chunki bu ertakda bir necha yovvoyi hayvon qahramonlarini ko'rish mumkin.

Shu bilan birga boshlang'ich sinf o'quvchilari tana azolari so'zlarini eslab qolishlarining oson yo'llaridan biri so'zlarni harakatlar orqali ko'rsatib berishdir. Yani bunda o'qituvchi



o'quvchilarni o'rnidan turg'izadi, o'qituvchi *head* deganda ular boshlarini, *face* deganda yuzlarini ko'rsatadilar. *Hand* desa qo'llarini ko'taradilar. Bu esa harakat orqali eslab qolishga yordam beradi.

O'quvchilarni darsga qiziqtirishning yangi va zamonaviy yo'llaridan biri bu multimedia va kompyuter vositalaridan foydalanishdir. Bunda o'quvchilarga qisqa vediorolklar, multfilmlar va bolalarga xos qo'shiqlar taqdim qilish mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, xorijiy tillarni, jumladan ingliz tilini mukammal darajada o'rganish yoshlarimiz uchun bugungi zamon talabidir. Yuqorida aytib o'tilgan o'qitish usullaridan kichik yoshdagi o'quvchilarni o'qitishda foydalanish til o'rgatishda samarali natijalarga erishishga olib keladi. Til o'rganishni esa har bir yosh avlod bolalikdan o'rgana boshlashi va unga mehr qo'yishi darkordir. Bu esa o'qituvchidan chuqur bilim, ijodkorlik hamda mashaqqatni talab etadi. Har bir o'quvchi til o'rganishga qiziqishi va jalb qilinishi lozim. Bugungi kun yosh avlodi har sohada yetakchi, har tomonlama bilimdon va zukko bo'lib yetishmog'I lozim. Buning uchun yurtimizda kundan-kunga yetarlicha imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

References

1. Джалолов Д.Д. и другие. Концепция непрерывного обучения по иностранному языку. Газета "Учитель Узбекистана". 28.07-03.08.1993 г. С-4.
2. Jablov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012 –b. 25.

3. https://www.norma.uz/raznoe/ozbekiston_respublikasi_prezidentining_farmoni
4. U.K. Mavlonova, S.K. Karimova. THE PROBLEM OF TEACHING ENGLISH IN MIXED ABILITY CLASSES. Dostijeniya nauki i obrazovaniya. 5 (59), 2020.
5. U.K. Mavlonova, Z.Z. Abulova, D.K. Kodirov. ROLE PLAY AS A METHOD OF DEVELOPING SPEAKING SKILL. Scientific reports of Bukhara State University 3 (1), 2020, p. 253-260.